

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.

S.Xodjaniyazov

2025-yil *29* *avgust*

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI

fanining

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Urganch – 2025

Mazkur o'quv dastur Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti kengashining 2025-yil "28" avgust dagi _____-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.


O'quv ishlari bo'yicha prorektor  S.U.Xodjaniyazov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i  G.R.Matlatipov

Mazkur o'quv dastur Filologiya va san'ati fakulteti Kengashining 2025-yil "28" avgust dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (1-sonli bayonnomasi).

Filologiya va san'at fakulteti dekani  D.Q.G'ayipov

Mazkur o'quv dastur O'zbek tilshunosligi kafedrasining 2025-yil "24" avgust dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan (1-sonli bayonnomasi).

O'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri  A.I.Primov

Tuzuvchi  H.Narimov

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
HO'AT2-311	2025-2026, 2026-2027	II III	5 6	
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek		4 5	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Hozirgi o'zbek adabiy tili	2-semestr Jami: 60 - 30 soat ma'ruza - 16 soat amaliy - 14 soat seminar 3-semestr Jami: 75 - 30 soat ma'ruza - 30 soat amaliy - 16 soat seminar	II semestr 90 III semestr 104	II semestr 150 III semestr 180
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishning maqsadi – talabalarni hozirgi o'zbek adabiy tilining nazariy masalalari (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirishdan iborat. Fanning vazifasi – talabalarda hozirgi o'zbek adabiy tili faniniga oid terminlarning ishlatilish ko'lami, matnning sintaktik tahlilidan foydalanish va ularni amalda ham o'quv, ham ilmiy izlanishlar jarayonida qo'llash masalasini shakllantirish va boshqalar. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr : - adabiy tilning sintaksisiga oid birliklarni farqlash; so'z birikmasi, gap va matnlarni tadqiq qilish usullari; o'zbek tilining sintaktik xususiyatlarini; so'z birikmasi, gap va matn turlari va ularning belgilari; o'zbek adabiy tilida gap bo'laklari; gapni murakkablashtiruvchi birliklar va qo'shma gap turlari, punktemalarning ishlatilish o'rinlarini <i>bilishi kerak kerak</i> . - o'zbek adabiy tilida so'z birikmalari, sodda gap va qo'shma gaplar tasnifi; o'zbek adabiy tili sintaksisini o'rganishning metod va usullari; og'zaki va yozma matn ustida ishlash; o'zbek adabiy tilidagi sintaktik birliklar; erkin va turg'un birikmalarni o'rganish va farqlash yo'llari; gap bo'laklarining shakli va mazmuniy paradigmasini ajratish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i> . - o'zbek adabiy tilining sintaktik tarkibini bilish; SB tahlili, gap tahlillarini o'rganish va amaliyotda qo'llay olish; sintaktik birliklarini o'rganishda ilmiy manbalarga tayana olish; an'anaviy va zamonaviy sintaktik nazariyalari o'zaro farqlash va umumlashtirish yo'llarini bilish; turli matnlardan so'z birikmalari, so'z qo'shilmalari, sodda gap va qo'shma gaplarni ajrata olish; ularni struktur sintaksis-nuqtayi nazaridan analiz qilish <i>malakasiga ega bo'lishi kerak</i> . "Hozirgi o'zbek tili" fanining o'rni filologik ta'limda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu kurs bakalavriat bosqichidagi "Qadimgi turkiy til", "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi", "O'zbek dialektologiyasi", "Umumiy tilshunoslik", "Ona tili o'qitish metodikasi", "O'zbek tili stilistikasi", shuningdek, magistratura bosqichidagi "Nazariy tilshunoslik masalalari", "Pragmalingvistika", "Matn tilshunosligi", "Psixolingvistika", "Lingvokulturologiya" kabi o'quv kurslari ta'limiga asos bo'lib xizmat qiladi. Kursning Sintaksis bo'limi oliy o'quv yurtlarida o'rganiladigan asosiy nazariy va amaliy ahamiyatga molik bo'lim sanaladi. Chunki sintaksis nazariy va mazmuniy grammatikaning tayanchi hisoblanadi.			

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II semestr

1-mavzu. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining maqsadi va vazifalari Til, lison va nutq munosabati. O'zbek xalqi va uning shakllanish tarixi. O'zbek adabiy tili taraqqiyotini davrlashtirish. Hozirgi o'zbek adabiy tili va uning shevalarga munosabati. Hozirgi o'zbek adabiy tilining o'rganilish tarixi va bosqichlari. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining maqsadi va vazifalari. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining bo'limlari

2-mavzu Lisoniy paradigma. Til, lison va nutq munosabati. Til sathlari va birliklari. Ilmiy bilish va uning bosqichlari. Falsafiy UMIS va AHVOning lisoniy tizimda voqelanishi. Lisoniy va nutqiy biliklar. Lisoniy paradigma va uning turlari.

Hozirgi o'zbek tilida lisoniy munosabatlarning turlari: paradigmatic munosabat, sintagmatik munosabat, ularning xususiyatlari. Paradigmatik munosabatlarda lisoniy ziddiyatlar. O'zbek tili tizimida lisoniy ziddiyatlarning turlari: noto'liq (privativ) ziddiyat, teng qiymatli (ekvipolent) ziddiyat, darajali (gradual) ziddiyat, ularning xususiyatlari.

Hozirgi o'zbek tili hodisalarini tasniflash asoslari. Tasnif turlari

3-mavzu. Hozirgi o'zbek tilining fonetik sath. O'zbek tili fonetikasi va fonologiyasi tushunchalari. Emperik soha sifatidagi fonetika nazariy soha sifatidagi fonologiyaning asosi ekanligi. Fonetikaning turlari, ularning maqsad va vazifalari. Nutq tovushlari fonetik birliklar sifatida. Nutq tovushining turlari, xususiyatlari. O'zbek nutq tovushlarining fizik-akustik aspekti. Nutq tovushining akustik belgilari. O'zbek nutq tovushlarining anatomik- fiziologik aspekti.

Unli fonemalar paradigmasi. Undosh fonemalar paradigmasi.

4-mavzu. Hozirgi o'zbek adabiy tili fonologiyasi. O'zbek tili fonologiyasi va uning asosiy birligi. Fonema va tovush munosabati, unda lison va nutq munosabatining aks etishi. Fonemaning turlari. Unli fonemalar va ularning substansial xususiyatlari, unli fonemalarni tasniflash asoslari. Undosh fonemalar va ularning substansial xususiyatlari, unli fonemalarni tasniflash asoslari. Fonemalar aro lisoniy ziddiyatlarning voqelanishi.

O'zbek tili fonemalari lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi. Nutqiy voqelanishda fonema lisoniy imkoniyatlarining nutqiy sharoit va vaziyatga moslashishi. Fonemalarning nutqiy voqelanishiga ta'sir qiluvchi lisoniy omillar: yondosh tovushlar, urg'u, bo'g'in, ohang va b. Fonemalarning nutqiy voqelanishiga ta'sir qiluvchi nolisoniy omillar (nutqiy vaziyat va sharoit, so'zlovchi shaxs va b), ularning lisoniy omillar bilan uyg'unlashuvi.

5-mavzu. Hozirgi o'zbek tilining leksik sathi va leksikologiyasi. Semema va uning tarkibiy qismlari. Leksikologiya, leksika, lug'at tarkibi, lug'aviy birlik, leksik birlik, frazeologik birlik, umumiy leksikologiya, xususiy leksikologiya, qiyosiy leksikologiya, tarixiy leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, onomasiologiya, onomastika.

6-mavzu. So'z va leksema. Leksemaning tarkibi va ma'no ko'rinishlari. Nominativ birlik, leksik so'z, grammatik so'z, semema, nomema, leksik ma'no, fonetik so'z, denotat, referent, signifikat, valentlik, tushuncha, turkumlik semalari, leksik ma'noning semantik tarkibi, uzual ma'no, okkazonal ma'no.

7-mavzu. Leksik monosemiya va leksik polisemiya. Monosemiya, polisemiya, metafora, vazifadoshlik, metonimiya, sinekdoxa, hozirgi leksik ma'no, avvalgi leksik ma'no, bosh ma'no, hosila ma'no, eski leksik ma'no, etimologik leksik ma'no, shakl etimoni.

8-mavzu. Leksik antonimimiya, sinonimiya va omonimiya.

9-mavzu. Paronimiya, giponimiya, gradionimiya, partonimiya. Paronimiya, kvaziomonimlar, so'z variantlari, paronomaziya, giponimiya, giponim, giperonim, graduonimiya, partonimiya.

10-mavzu. Leksemalarning ishlatilish doirasi. O'zbek tili leksikasining emotsional-ekspressivlik jihatidan qatlamlanishi. Uslubiy bo'yoq, emotsional-ekspressivlik, emotsional-ekspressivlikni ifodalashning leksik usuli, emotsional-ekspressivlikni ifodalashning affiksatsiya usuli, emotsional-ekspressivlikni ifodalashning kontekstual usuli, emotsional-ekspressivlikni ifodalashning fonetik usuli, so'zni metaforik qo'llash.

11-mavzu. Frazeologiya. Frazeologik monosemiya, frazeologik polisemiya, frazeologik butunlik, frazeologik chatishma, frazeologiya, frazema.

12-mavzu. Frazemaning ifoda plani va mazmun plani. Frazemaning ifoda plani, frazemaning mazmun plani, frazeologik omonimiya, frazeologik paronimiya, omofrazemalar, parafrazemalar, frazeologik sinonimlar, uslubiy bo'yoq, frazeologik variatsiya, leksik-frazeologik

sinonimlar, leksik-frazeologik antonimlar, o'z qatlam frazemalari, o'zlashgan qatlam frazemalari, dialektizm-frazema, istorizm-frazema, arxaizm-frazema, neologizm-frazema.

13-mavzu. Morfemika, morfema turlari. Morfemika, morf, morfema, o'zak morf, affiksall morf, suffiks, prefiks, so'z yasovchi affiks, unumli affiks, unumsiz affiks, shakl yasovchi affiks, lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi, omonim affiks, polisemantik affiks, sinonim affiks, affiksall antonim.

14-mavzu. Derivatsiya nazariyasi. So'z yasalish usullari. Yasalish, so'z yasovchi affiks, unumli so'z yasovchi affiks, unumsiz so'z yasovchi affiks, derivatsiya, affiksatsiya, kompozitsiya, fonetik usul, semantik usul, abbreviatsiya, konversiya, adverbializatsiya.

15-mavzu. So'z turkumlarida derivatsiya nazariyasi. Yasalish, otdan ot yasalishi, fe'ldan ot yasalishi, qo'shma ot yasalishi, yasama sifat, qo'shma sifat, otdan sifat yasash, fe'l asosidan sifat yasash, siftdan sifat yasash, yasama fe'l, qo'shma fe'l, kompozitsiya usuli, ravish yasalishi, adverbializatsiya.

III semestr

1-mavzu. Grammatik shakl, grammatik ma'no va grammatik kategoriya. Hozirgi o'zbek tilida so'z turkumlari. Grammatikaning tarkibiy qismlari. Morfologiya, grammatik shakllangan so'z uning birligi sifatida. Grammatik ma'no, uning turlari: morfologik va sintaktik ma'no, umumiy, oraliq va xususiy grammatik ma'no, kategorial, yondosh va hamroh ma'no, ularning xususiyatlari va turlari. O'zbek tili grammatik (morfologik) kategoriyalari va ularning turlari: lug'aviy shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar.

2-mavzu. Fe'ning tasniflovchi kategoriyalari. Fe'ning tasniflovchi kategoriyalari. Fe'ning o'zgalovchi kategoriyalari. Nisbat kategoriyasi va uning shakllari tizimi. Nisbat kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi ularning substansial mohiyati sifatida. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasining tasdiq-inkor kategoriyasiga munosabati. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati. Fe'ning o'zgalovchi kategoriyasi va uning shakllari: sifat-dosh, ravishdosh, harakat nomi. Fe'ning harakat tarzi kategoriyasi murakkab tarkibli kategoriya sifatida. [Ravishdosh+ko'makchi fe'l] harakat tarzi kategoriyasi shakli sifatida. Harakat tarzi kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Harakat tarzi kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati. Fe'ning nokategorial shakllari tizimi.

3-mavzu. Ot so'z turkumi. Otning UGMsi. Otning son kategoriyasi. Otning nokategorial shakllari. Ot va uning o'rganilish tarixi. Otning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Otning umumiy grammatik ma'nosi. Otning lug'aviy-grammatik guruhleri. Otning tasniflovchi kategoriyasi. Son kategoriyasi va uning shakllari. Son kategoriyasi va shakllarining UGMsi. Otning nokategorial shakllari.

4-mavzu. Sifat so'z turkumi. Son so'z turkumi. Sifat va uning o'rganilish tarixi. Sifatning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sifatning lug'aviy-grammatik guruhleri. Asliy va nisbiy sifatlar. Daraja sifatning tasniflovchi kategoriyasi sifatida. Daraja kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarining uyg'unlashuvi.

Son va uning o'rganilish tarixi. Sonning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sonning lug'aviy-grammatik guruhleri va tasniflanishi. Son grammatik shakllarining lug'aviy ma'noga ta'sir qilish imkoniyatlari. Son shakllari umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarining uyg'unlashuvi. Numerativlar. Numerativli birikuvlarning qoliplari.

5-mavzu. Ravish so'z turkumi. Taqlid so'zlar. Ravish va uning o'rganilish tarixi. Ravishning mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgaraslik ravishning grammatik belgisi sifatida. Ravishning lug'aviy-grammatik guruhleri. Taqlid so'zlar, ularning o'rganilishi. Taqlidning mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgaraslik taqlidning grammatik belgisi sifatida. Taqlidning lug'aviy-grammatik guruhleri.

6-mavzu. Olmosh so'z turkumi. Olmosh va uning o'rganilish tarixi. Olmoshning o'ziga xos ishoriy (deyktik) tabiati, mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari.

Olmoshlarning matndagi o'ri. Sintaktik imkoniyatlari.

7-mavzu. Hozirgi o'zbek tilida yordamchi so'zlar va so'z-gaplar. Yordamchi so'zlar va ularning turlari: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama. Ko'makchi, uning o'rganilishi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Ko'makchi lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Bog'lovchi, uning o'rganilishi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Bog'lovchi lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Yuklama, uning o'rganilishi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Yuklama lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar uyg'unligi.

8-mavzu. Kirish. Asosiy sintaktik birliklar. So'z birikmasi sintaksisi. Sintaksisning morfologiya va leksika bilan aloqasi. Lisoniy sintaktik qolip (LSQ). Sintaktik UGMlar. Valentlik. LSQlarning ikki asosiy turi, nominativ birliklar yasash LSQ (so'z birikmalari LSQ) va kommunikativ birliklar yasash LSQ (gap LSQ)i. So'zlarning so'z birikmalarida (SB) bog'lanish (moslashuv, boshqaruv, bitishuv) usullari. SBning nominativ tabiati. SB LSQlari, ularning hosilalari. So'z birikmalari zanjiri va kengaygan birikmalar zanjiri.

9-mavzu. Sodda gap sintaksisi. Gap bo'laklari nazariyasi. Kesim paradigmasi. Gap kommunikativ nutqiy birlik sifatida. Sodda gapda shakl va mazmun munosabati. Gap LSQning kengayishi. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari. Gapda so'zlar tartibi. Gapning aktual bo'linishi. Gaplarning emotsionallikka ko'ra turlari. Uyushgan gap.

10-mavzu. Egan paradigmasi. Egali va egasiz gap. Ega, uning gap qurilishidagi o'ri. Egali va egasiz gaplar. Eganing shakli va mazmuni paradigmasi. Ega va kesim koordinatsiyasi, ular orasida tirening ishlatilishi.

11-mavzu. Gap tuzilishida hol, to'ldiruvchi va aniqlovchining o'ri. Hollar va to'ldiruvchilar, ularning gap qurilishida gap kengaytiruvchisi hamda so'z kengaytiruvchisi sifatidagi o'ri, ifodalanishi va turlari. Aniqlovchilar, ularning shakli va mazmuni paradigmasi. Qaratqich aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi va izohlovchi aniqlovchilarning so'z kengaytiruvchisi sifatidagi gapdagi o'ri.

12-mavzu. Murakkablashgan sodda gap. Sodda gapning murakkablashishi va murakkablashtiruvchi vositalar. Gapning uyushiq bo'laklari va umumlashtiruvchi qism. Ajratilgan izoh bo'laklar va ularda tinish belgilari.

Undalma va uning shakli-mazmuni paradigmasi. Yig'iq va yoyiq undalmalar. Kirish va kiritmalarning gapning lisoniy va nutqiy ko'rinishlaridagi o'ri.

13-mavzu. Qo'shma gap turlari. KGQGLar. QG tarkibida sodda gaplarni o'zaro bog'lovchi vositalar paradigmasi. Teng tarkibli qo'shma gaplar (LSQ: WPm, WPm).i. Tobe tarkibli qo'shma gaplar (WRm→WPm). Mutanosib tarkibli qo'shma gaplar va ularning LSQ (WRm→WPm).

14-mavzu. Bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz qo'shma gap. Murakkab qo'shma gap turlari. QG tarkibiy qismlari orasidagi nutqiy voqelanishlarda ma'noviy sintaktik munosabatlar. Hokim va tobe gap. Tobe gaplarning hokim gap bo'laklariga munosabati. Kesim tobe gapli qo'shma gaplar. Ega tobe gapli qo'shma gaplar. To'ldiruvchi tobe gapli qo'shma gaplar. Aniqlovchi tobe gapli qo'shma gaplar. Hol tobe gapli qo'shma gaplar. Ravish, sabab, maqsad, payt va boshqa e.q.g.lar Qo'shma gap tarkibiy qismlari orasidagi ma'noviy, funksional munosabatlariga ko'ra, reallik va irrealligiga ko'ra turlari. QGLarni kengaygan birikmali sodda gaplarga aylantirish. Murakkab qo'shma gaplar, ularning asosiy nutqiy ko'rinishlari. Bir necha bosh gapli, bir necha ergash gapli, aralash va qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar.

15-mavzu. Punktatsiya va uning tamoyillari. O'zbek tili punktatsiyasi tarixidan. Punktumalar tasnifi. Yozma matnlarda tinish belgilarining qo'llanish o'rinlari. Tinish belgilarining qo'shaloq ishlatilishi

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

II semestr

1. Fonetik tahlil
2. So'z urg'usi va bo'g'in turlari bo'yicha mashqlar tahlili
3. Orfografiya va orfoepiya tamoyillari bo'yicha mashqlar tahlili
4. Semema va nutqiy ma'no, sema va uning turlari bo'yicha mashq. Leksik monosemiya va leksik polisemiya yuzasidan mashq ishlash

5. Leksik antonimiya, sinonimiya va omonimiya yuzasidan mashq ishlash
6. Paronimiya, giponimiya, gradionimiya, partonimiyani matnlardan tahlil qilish
7. Frazologiya va uning turlari yuzasidan mashq ishlash
8. Morfemika, morfema turlari yuzasidan mashq ishlash. So'z yasalishi, so'z yasalishi qoliplari yuzasidan mashq ishlash

III semestr

1. Grammatik ma'no, shakl va kategoriya turlari bo'yicha tahlil.
2. Fe'ning lug'aviy-grammatik turlari va lug'aviy shakllari bo'yicha mashq.
3. Fe'ning tasniflovchi kategoriyalari tahlili.
4. Otning lug'aviy-grammatik turlari va lug'aviy shakllari bo'yicha mashqlar tahlili.
5. Sifat va son turkumining lug'aviy-grammatik turlari va lug'aviy shakllari bo'yicha mashqlar tahlili.
6. Ravish, taqlid va olmosh turkumi bo'yicha mashqlar tahlili.
7. Yordamchi so'zlar va so'z-gaplar tahlili.
8. So'z birikmalari LSQi. So'z birikmasi(SB)da hokim va tobe, kengayuvchi va kengaytiruvchi so'z. SBda bog'lanish usullari.
9. Gapning belgilari. Gapning shakllanishida leksik, morfologik omillar, shakl va mazmun munosabati. Sodda gap tahlili.
10. Gap bo'laklari va ularning shakli-mazmuni paradigmasi.
11. Sodda gaplarni murakkablashtiruvchi vositalar.
12. Qo'shma gap sintaksisi. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar.
13. Bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar. Bosh gap va ergash gap.
14. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Murakkab qo'shma gaplar.
15. Tinish belgilarining qo'llanishi yuzasidan mashq ishlash.

IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

II semestr

1. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari, manbalari va dialektal tarkibi. Fonetika va fonologiya.
2. Hozirgi o'zbek adabiy tilida lison, nutq, me'yor munosabati.
3. Lisoniy va nutqiy birliklar. Semema va nutqiy ma'no, sema va uning turlari
4. O'zbek tili leksikasining emotsional-ekspressivlik jihatidan qatlamlanishi
5. Leksik monosemiya va leksik polisemiya.
6. O'zbek tilidagi leksemalarning shakl va ma'no munosabatlari: omonimiya, antonimiya, sinonimiya
7. Morfemika, morfema turlari. Derivatsiya. So'z yasalishi, so'z yasalishi qoliplari

III semestr

- 1 Grammatik shakl, grammatik ma'no va grammatik kategoriya. O'zbek tilida so'z turkumlari. Mustaqil so'z turkumlari.
2. Fe'l, uning grammatik xususiyatlari va tasniflovchi kategoriyalari. Ot va sifat, ularning grammatik xususiyatlari va tasniflovchi kategoriyalari.
3. Son va rayish, ularning grammatik xususiyatlari hamda tasniflovchi kategoriyalari. Taqlid va olmosh. Ularning grammatik xususiyatlari.
4. O'zbek tilida sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar. Yordamchi so'zlar: turlari va substansial-grammatik xususiyatlari.
5. Lisoniy sintaktik qolip (LSQ)ning asosiy turlari, uni ajratish usullari. Mustaqil va nomustaqil kesimlik shakllari. Uyushgan gaplar, qo'shma gaplar va ularning tabiati, mohiyati LSQsi.
6. Gap bo'laklari va ularni ajratish tamoyillari. Qo'shma gapning tasnifi. Qo'shma

gaplarning semantik-funksional tasnifi. Qo'shma gap. Matn ustida ishlash.
 7. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Murakkab qo'shma gaplar. Ko'chirma gapli qurilmalar.
 8. Sodda va qo'shma gaplar tarkibida tinish belgilarining qo'llanishi. Uyushiqlik va ajratilganlik hodisasi.

Amaliy va seminar mashg'ulotlar tashkillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va amaliy masalalarni kompyuter bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bitta professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

II semestr

1. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. O'zbek tilshunosligida yangi lingvistik paradigmalari.
2. Fonema va tovushning dialektik munosabati.
3. Hozirgi o'zbek tilida lisoniy munosabatlar va uning turlari.
4. Lisoniy ziddiyatlar. Lisoniy tasnif va uning turlari.
5. O'zbek tilshunosligida unli fonemalar tasnifi.
6. O'zbek tilshunosligida undosh fonemalarning o'rganilishi
7. O'zbek tilshunosligida fonetik hodisalar.
8. Ta'lim bo'g'inlarida imlo qoidalarining berilishi. Ta'lim bo'g'inlarida talaffuz ma'yorlari tavsifi.
9. O'zbek tilshunosligida semema va sema munosabati talqini
10. O'zbek tilshunosligida sinonimiya va antonimiya hodisasining o'rganilishi
11. O'zbek tilshunosligida metafora va metonimiya hodisasiga ilmiy munosabat
12. O'z va o'zlashgan qatlam so'zlari, so'z o'zlashtirish yo'llari.
13. Derivatsion tahlil (muayyan asar misolida)
14. Morfemika. O'zak va affiksial morfema.
15. Tarixiy va sinxron derivatsiya tahlili.
16. Emotsional-ekspressiv bo'yoqdor, bo'yoqsiz, nutqiy-uslubiy xoslangan va xoslanmagan so'zlar.
17. Frazzeologik monosemiya va polisemiya
18. Frazzeologiyaning o'rganilishi
19. Lug'at va uning turlari
20. O'zbek tilshunosligida filologik terminlarning ilmiy tavsifi

III semestr

1. O'zbek tili grammatik shakllar. Grammatik ma'no va uning turlari. Grammatik kategoriya va uning turlari.
2. O'zbek tilida mustaqil so'z turkumlari.
3. O'zbek tilida fe'l UGMsi.
4. O'zbek tilida ot UGMsi.
5. O'zbek tilida sifat UGMsi.
6. O'zbek tilida son UGMsi. O'zbek tilida numerativlar.
7. O'zbek tilida olmosh UGMsi.
8. O'zbek tilida ravish va taqlid UGMsi.
9. O'zbek tilida sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar.
10. O'zbek tilida yordamchi so'zlar.
11. O'zbek tilida so'z-gaplar.
12. O'zbek tilining struktural sintaksisi
13. LSQning asosiy turlari

14. Lisoniy sathda gap bo'laklari
15. Kesim. Nomustaqil kesim xususiyatlari
16. So'z kengaytiruvchilari
17. Gapda ajratilgan so'z shakllari
18. Sodda gaplarda teng bog'lanish
19. Undalma. Gapning kirish va kiritma kengaytiruvchilari
20. Gapda so'zlar tartibi. Aktual bo'linish
21. Uyushgan gaplar
22. O'zbek tilida qo'shma gaplar struktural sintaksisi
23. Ilmiy adabiyotlarda qo'shma gap tasnifi masalasi
24. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda shakl va mazmun
25. Ergashgan qo'shma gaplarda shakl va mazmun
26. EQGlarda bosh gap va ergash gapning o'rintilishi
27. O'zgar gapining ifodalanishi
28. Aralash qo'shma gaplar
29. O'zbek tili punktuatsiyasi
30. Matn birliklari

Talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va tilshunoslikning amaliy masalalarini hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish maqsadida kafedra o'qituvchilari rahbarligida mustaqil ish bajaradilar.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:

hozirgi o'zbek tilining shakllanish tarixi, shevalarga munosabati, lisoniy sathlari, lisoniy paradigmalari, lisoniy birliklarning substansial imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, leksikasi, morfemikasi, so'z yasalishi, morfologiyasi, sintaksisi, punktuatsiyasi haqida *tasavvur va bilimlarga ega bo'lishi*;

hozirgi o'zbek tili sathlari va ularning birliklarini farqlash tamoyillarini, lisoniy munosabat hamda uning turlarining ilmiy asoslarini, lisoniy birliklar substansial imkoniyatlarini aniqlash usullarini, fonetik, leksik, grammatik imkoniyatlarini nutqiy voqelanishida lisoniy, shaxsiy va pragmatik omillar roli va hamkorligining ilmiy asoslarini bilishi va ulardan foydalana olish *ko'nikmasini egallashi*;

hozirgi o'zbek tilida lisoniy, nutq hamda ular birliklarini farqlash asoslarini sharhlay olish, lisoniy va nutqiy birliklarini ajratish mezonlarini tushuntira olish, birliklar orasidagi lisoniy munosabatlarni tavsiflay olish, lisoniy imkoniyatlarini nutqiy vaziyat va sharoitga bog'liq ravishda samarali ishga solish *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruza;
- "keys-stadi"lar;
- tezkor savol-javoblar;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimot texnologiyasi;
- intellekt xaritalar;
- konseptual jadvallar;
- eksperiment metodlari.

5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, kichik amaliy masalalarni yechma olish, mustaqil ravishda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

6.	<p>VIII. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Абдурахманов Ф. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. 2. Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. 3. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Самарқанд, 2001. 4. Lutfullayeva D., Davletova R., Saparniyozova M. . Hozirgi o'zbek adabiy tili. Amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar: O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2018. – 280 b. 5. Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent, 2006. 6. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., 7. Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. 8. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 9. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b. 10. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b. 11. Махмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. 12. Неъматов Х., Сайфуллаева Р., Қурбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. – Тошкент: Университет, 1999. 13. Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis. Darslik.– Toshkent: Mumtoz so'z, 2008. 14. Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (Содда гап синтаксиси учун материаллар). – Тошкент: Университет, 2002. 15. Қурбонова М., Сайфуллаева Р., Бокиева Г., Менглиев Б. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси. – Тошкент. 2004. <p style="text-align: center;">Internet saytlari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism 2. http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html 3. http://www.utpa.edu/faculty/mglazer/Theory/structuralism 4. www.ZivoNet 5. www.nuaf.intal.uz 6. www.zivouz.com 7. www.ref.uz 8. http://www.gov.uz/ AlisherNavoiynomidagi TDO'TAU sayti. 9. http://www.pedagog.uz/ Pedagogikamuassasariportali. 10. www.tdpu.uz 11. www.pedagog.uz 12. www.nutq.intal.uz 13. http://www.multimedia.uz 14. www.tilvaadabivot.uz e-mail: til_adabiyot@umail.uz
7.	<p>Mazkur o'quv dastur M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining filologiya ta'lim yo'nalishi uchun “Основы языкознания” fanidan tuzilgan o'quv dastur (https://msu.ru/articles/Filfak-Bak-Rabochiye-programmy-distiplin) asosida takomillashtirilib, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p>

8.	<p>Fan/modul uchun mas'ul: H.Narimov – UrDU, “O'zbek tilshunosligi” kafedrasini o'qituvchisi</p>
9.	<p>Taqrizchilar: A.Primov – UrDU “O'zbek tilshunosligi” kafedrasini professori, f.f.d. R.Xudayberganov – Urganch innovatsion universiteti Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.</p>